

UDC: 347.725(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-3640-1709

XORIY DAVLATLAR BANK TIZIMLARI VA BANKLAR KORPORATIV BOSHQARUVI HUQUQIY ASOSLARI (AQSH, GERMANIYA VA YAPONIYA MISOLIDA)

Atajanov Xamdambek Kuromboyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Biznes huquqi” kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: hamdambek@gmail.com

Annotatsiya. Muallif tomonidan mazkur maqolada dunyoning yetakchi davlatlarining tijorat banklarida korporativ boshqaruv, uning huquqiy asoslari, tijorat banklarida korporativ boshqaruvning o‘ziga xosligi, uning ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Maqolada korporativ boshqaruvga oid bo‘lgan atamalar, tushunchalar ochib berilgan, dunyoning yetakchi davlatlari tijorat banklarida korporativ boshqaruvda turli boshqaruv organlari ahamiyati, ularni tashkil etishdagi amaliyot, shuningdek ular o‘rtasidagi qiyosiy tahlil ham keltirib o‘tilgan. Maqolada tijorat banklarida korporativ boshqaruvga oid dunyoning yetakchi davlatlari bo‘lgan AQSh, Germaniya va Yaponiya tajribasi tahlil qilingan, mazkur davlatlarda tijorat banklarining boshqaruv organlari qanday shakllantirilishi, ularning korporativ boshqaruvdagi o‘rni va korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari keltirilgan. Tijorat banklaridagi korporativ boshqaruv organlarining boshqa korporatsiyalardagi boshqaruv organlardan farqlari ochib berilgan. Korporativ boshqaruvda tan olingan uchta model (anglo-sakson, nemis va yapon modellari) asosida banklarning boshqaruv organlarini tashkil etish, ularning faoliyat olib borishi va ustunliklari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, muallif tomonidan xorijiy mamlakatlarning ushbu sohada tajribasini mahalliy tizimga joriy etish bo‘yicha amaliy-huquqiy tavsiyalar berilgan va muallif xulosalari bildirilgan.

Kalit so‘zlar: korporatsiya, korporativ boshqaruv, tijorat banki, Bank boshqaruvi, Bank kengashi, Korporativ boshqaruv kodeksi, Markaziy bank, bank nazorati, bank auditi, Rag‘batlantirish qo‘mitasi, keyresu.

БАНКОВСКИЕ СИСТЕМЫ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И ПРАВОВАЯ ОСНОВА КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ БАНКАМИ (НА ПРИМЕРЕ США, ГЕРМАНИИ И ЯПОНИИ)

Атажанов Хамдамбек Куромбоевич,
преподаватель кафедры “Бизнес-право”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье автор пытается объяснить корпоративное управление в коммерческих банках ведущих стран мира, его правовую основу, особенности корпоративного управления в коммерческих банках и его важность. В статье разъясняются термины и концепции корпоративного управления, роль различных органов управления в корпоративном управлении коммерческих банков ведущих стран мира, практика их организации, а также проводится сравнительный анализ между ними. В статье анализируется опыт США, Германии и Японии – ведущих стран мира в области корпоративного управления в коммерческих банках, проанализировано, как формируются органы управления коммерческих банков в этих странах, их роль в корпоративном управлении и правовая база корпоративного управления. Выявлены отличия корпоративного управления коммерческими банками от управления другими корпорациями. На основе трех общепризнанных моделей корпоративного управления (англосаксонская, немецкая и японская) показана организация органов управления банков, их деятельность и приоритеты. Также автором даны практические и юридические рекомендации по внедрению зарубежного опыта в данной сфере в локальную систему и сделаны авторские выводы.

Ключевые слова: корпорация, корпоративное управление, коммерческий банк, управление банком, Совет банка, Кодекс корпоративного управления, Центральный банк, банковский надзор, банковский аудит, комитет по вознаграждениям, “кейрэцу”.

BANKING SYSTEMS OF FOREIGN COUNTRIES AND LEGAL BASIS OF CORPORATE GOVERNANCE OF BANKS (ON THE EXAMPLE OF THE UNITED STATES, GERMANY AND JAPAN)

Atajanov Khamdambek Kuromboyevich,
Lecturer of the Department of Business Law of
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the author tries to explain corporate governance in commercial banks of the world's leading countries, its legal framework, the specifics of corporate governance in commercial banks, and its importance. The article explains the terms and concepts of corporate governance, the role of different governing bodies in corporate governance in commercial banks of the world's leading countries, the practice of their organization, as well as a comparative analysis between them. The article analyzes the experience of the United States, Germany and Japan, the world's leading countries in corporate governance in commercial banks, how the governing bodies of commercial banks are formed in these countries, their role in corporate governance and the legal framework of corporate governance. The differences between the corporate governance of commercial banks and the governance of other corporations are revealed. Based on the three models recognized in corporate governance (Anglo-Saxon, German and Japanese models), the organization of bank governing bodies, their activities and priorities are shown. The author also provides practical and legal recommendations for the introduction of foreign experience in this field in the local system, and the author's conclusions.

Keywords: corporation, corporate governance, commercial bank, bank management, bank council, corporate governance code, central bank, banking supervision, bank audit, remuneration committee, keiretsu.

Hozirgi kunda mustahkam bank tizimini shakllantirishda samarali korporativ boshqaruvni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Dunyo bo'ylab hukmronlik qilayotgan pandemiya xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan bank xizmatlari ko'rsatishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Mazkur sohada salmoqli tadqiqotlar olib borgan Dr. Marcinowska fikricha, tijorat banklarining siyosatini belgilab beruvchi va uni amalga oshiruvchi boshqaruv organlarining o'рни ushbu vaziyatda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Mazkur sohada asosiy muammolardan biri – bu minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bo'lib, ba'zi hollarda yirik aksiyadorlar o'z yoki korporatsiya manfaatlarini yo'lida minoritar aksiyadorlar huquqlarini qurbon qilishlari mumkin.

Xorijiy davlatlarning bank tizimini o'rganish davomida shu aniqlandiki, rivojlangan davlatlar bank tizimlari iqtisodiy rivojlanishda umumiy, shuningdek o'ziga xos jihatlarga ega.

Banktizimidagi umumiy xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bank tizimining ikki pog'onadan iboratligi: birinchi pog'ona Markaziy bank yoki bank kuzatuvini amalga oshiradigan boshqa vakolatli or-

gandan tashkil topgan, ikkinchi pog'ona esa kredit (bank), moliya tashkilotlari va bank infrastrukturasiga kiradigan boshqa tashkilotlardan tashkil topgan.

2) kredit tashkilotlari ustidan kuzatuv tizimining mavjudligi.

Kuzatuv tizimining tuzilishiga ko'ra uch guruh davlatlarni ajratish mumkin:

a) kuzatuvni Markaziy bank amalga oshiradigan davlatlar;

b) davlat tomonidan maxsus vakolat berilgan organ tomonidan kuzatuv olib boriladigan davlatlar;

d) kuzatuvni Markaziy bank bilan birgalikda boshqa organlar amalga oshiradigan davlatlar [2];

3) Bank sohasi va pul kredit siyosatining umumiy tartibga solinishi.

Bank tizimning birinchi pog'onasida Markaziy bank turadi. Dunyoning eng rivojlangan samarali bank tizimiga kiruvchi davlatlarda Markaziy bankdan tashqari boshqa vakolatli organlar ham mavjud. Germaniyada Nemis Federal banki bilan birgalikda kredit faoliyatini kuzatuv bo'yicha Federal idora, Fransiya Fransiya bankidan tashqari Bank Reglamenti bo'yicha qo'mita, Kredit muas-

sasalari bo'yicha qo'mita va Bank komissiyasi, AQShda esa bank sohasini Federal Rezerv tizimi Boshqaruvchilar kengashi boshqaradi, bundan tashqari okrug federal rezerv banklari, pul aylanmasi nazorati xizmati va depozitlarni sug'urtalash Federal korporatsiyalar mavjud [3; 4].

Xorijiy davlatlarda bank kuzatuvining tashkil qilinishi mazkur davlatning tarixiy rivojlanishi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu jihatdan davlatlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) Markaziy bank tomonidan bank kuzatuv monopoli tarzda amalga oshiriladigan davlatlar (Gretsiya, Italiya, Lyuksemburg, Rossiya va Niderlandiya);

2) Markaziy bank o'zining kuzatuv funksiyasini boshqa davlat organi bilan birgalikda olib boradigan davlatlar (Ispaniya, Kanada) [5];

3) kuzatuv organlari Markaziy bankdan alohida ajratilgan davlatlar (Germaniya, AQSh, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Fransiya) [6].

AQSh banklarida korporativ boshqaruv. AQSh moliya bozori yuqori darajada rivojlanganligiga va moliyaviy bozor ishtirokchilari, ya'ni aksiyadorlar, institutsional investorlar, moliyaviy institutlar va jismoniy shaxslar borligiga qaramasdan, AQShda uzoq vaqtlargacha korporativ boshqaruv bo'yicha yagona qonun hujjati mavjud bo'lmagan. 1994-yilda "General Motors" kompaniyasining direktorlar kengashi tomonidan tayyorlangan "Korporativ boshqaruvning asosiy yo'nalishlari va muammolari" tezislari direktorlar darajasida tashkiliy muammolarni hal qilishga qaratilganligi uchun to'liq ma'nodagi korporativ boshqaruvga oid hujjat deb bo'lmaydi. O'sha paytda dunyoning 12 ta davlatida korporativ kodekslar qabul qilingan edi. Bundan tashqari, AQShda korporativ boshqaruv munosabatlarini tartibga soladigan yana bir nechta qonunlarga "Delaver korporatsiyalar qonuni", 1974-yildagi "Ishchilarning pensiya aksiyalari" Qonuni va 2002-yilgi "Sarbanes-Oksli" qonun hujjatlari kiradi [7].

AQShda tijorat banklari federal darajada va shtat darajasida tartibga solinishi mumkin [8]. Bank federal litsenziya olganida (milliy bank) bank faoliyati federal qonunlar bilan tartibga solinadi, shtat qonunlari e'tiborga olinmaydi. Bank shtat banki litsenziyasini olgan holatlarda esa uning faoliyati shtat qonunlari, ma'lum chegarachaga esa federal qonunlar bilan tartibga solinadi.

Umuman olganda, AQShda banklar aksiyadorlarning mulki hisoblanadi. Ammo Amerika qonunlariga ko'ra, aksiyadorlarning bankni boshqarishdagi huquqlari direktorlarni saylash bilan cheklanadi, direktorlar esa bankni aksiyadorlar nomidan boshqaradi. Aksiyadorlar ustavning muayyan qismlariga o'zgartirishlar kiritish, direktorlarni saylash va lavozimidan olish, shuningdek qayta tashkil qilish masalalari va hokozolarda ovoz berishda qatnashishlari mumkin. AQSh bank aksiyadorlarida bankning joriy faoliyatiga ta'sir o'tkazadigan hech qanday huquqlari yo'q [9].

AQShdabankdirektorlarikengashifaoliyatining asosida ikkita asosiy prinsip yotadi: ular yagona aksiyadorlar kollektivining vakili hisoblanishadi va ularning umumiy maqsadlariga erishish vazifalariga amal qilishlari lozim. Aksiya egalari – bu direktorlar kengashining saylaydigan yagona guruh bo'lib, direktorlar faqatgina ularning manfaatlariga xizmat qilishlari lozim. Shunday qilib, AQSh banklari korporativ tizimining o'ziga xosligi anglo-sakson korporativ boshqaruv tizimi o'zida aks ettiradi, ya'ni mayda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

AQSh tijorat banklari direktorlar kengashi va menejerlarning asosiy e'tibori bank faoliyatining moliyaviy tarafiga, xususan, uning aktivlari va aksiyalari qiymatining oshishiga qaratilgan.

So'nggi yillarda AQShda alohida shtatlar doirasida juda ko'p qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular direktorlar Kengashiga bank aksiyadori bo'lmagan korporativ munosabatlar ishtirokchilari manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi. Misol uchun, Ogayo shtati qonunchiligi direktorlar kengashiga o'z xohishlariga ko'ra, quyidagi shaxslarning manfaatlarini hisobga olishini ko'zda tutadi:

1) xodimlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, kreditorlar va omonatchilar;

2) shtat iqtisodiyoti;

3) mahalliy aholining ijtimoiy ehtiyojlari [10].

AQSh qonunchiligiga ko'ra, bank faoliyati us-tidan unitar direktorlar kengashi boshqaruvni olib boradi. AQSh qonunlari bank menejerlari bo'lgan direktorlar va mustaqil direktorlar o'rtasida vazifalarni ajratmaydi, faqatgina direktorlar kengashining umumiy vakolatlarini belgilab beradi. Direktorlar kengashida ko'pchilikni mustaqil direktorlar tashkil qiladi, ya'ni 9 ta kengash a'zosi-ni 5 tasi mustaqil direktorlardir [11].

AQShda ham Germaniyada bo'lganidek mustaqil direktorlarning ko'pchiligi o'rindoshlik asosida faoliyat yuritishadi. 2016-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, har bir mustaqil direktor yana boshqa 4 ta bank va kompaniyaning boshqaruvida ishtirok etgan. Mustaqil direktorning bankdagi ish faoliyati yiliga o'rtacha 200 soatni tashkil qilib, ularning yillik maoshi 100 ming AQSh dollarini tashkil qilgan. Bu ijrochi direktorlar maoshidan ancha kam bo'lib, AQSh banklarida ijrochi direktorlar yillik maoshi o'rtacha 5 mln dollarni tashkil qiladi [12].

AQSh tijorat banklarida direktorlar kengashi-ning vakolat va vazifalari qonun hujjatlarida aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa-da, umumiy korporativ amaliyotdan kelib chiqib, quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) direktorlar kengashi a'zolarining saylanishi va qayta saylanishi tartibi ustidan nazorat qilish, ular faoliyatini baholash;

2) bank strategiyasini baholash;

3) bank moliyaviy faoliyatini baholash va fondlarni taqsimlash;

4) bankning faoliyati normalari va ijtimoiy majburiyatlarini bajarilishini tekshirish;

5) bank faoliyatini qonunchilik doirasida bo'lishini ta'minlash.

AQSh tijorat banklarida Bank kengashi a'zolari o'z faoliyatini asosan qo'mitalarda olib boradi. Qo'mitalarda aniq bir vazifalar bo'yicha xulosalar ishlab chiqiladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga taqdim etiladi. Bank qo'mitalari soni va tarkibi banklarda har xil bo'lishi mumkin. Sarbanes Oksli qonuni va fond birjasi qonunchiligiga ko'ra, bankda butunlay mustaqil a'zolaridan iborat bo'lgan Audit, Rag'batlantirish bo'yicha va Nomzodlarni tayinlash bo'yicha qo'mitalar bo'lishi lozim [13].

Nemis korporativ boshqaruv tizimi. Nemis korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, aksiyadorlik kapitalida birgalikda ishtirok etish, korporativ nazorat tizimida banklarning ustunligi va mehnat jamoasining korporativ boshqaruvda qonun bilan belgilangan tartibda ishtirok etishidir [14].

Bunday tashkiliy tuzilma ijrochi direktorlar amalga oshiradigan monitoringni eng oliy boshqaruv xodimlari faoliyatlarining monitoringidan aniqroq ajratish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Germaniya kompaniyalarida mulk qanchalik tor doiradagi aksiyadorlar qo'lida to'plansa, kuzatuv kengashi tarkibi eng yirik aksi-

yadorlar yoki ularning bevosita vakillari ro'yxati bilan shunchalik ko'proq mos keladi.

Germaniyada, AQShdan farqli ravishda, direktorlar kengashi ikkita organdan tashkil topgan: butunlay mustaqil a'zolaridan iborat Kuzatuv kengashi va bank menejerlaridan tashkil topgan Ijro organi. Germaniyada Kuzatuv kengashida mustaqil direktorlarning nisbati 11 %i tashkil qiladi.

Nemis qonunchiligi ijro organi bilan kuzatuv organlarining vakolat va vazifalarini aniq ajratib bergan. Bu ikkala organ bir-biridan farqli yuridik javobgarlik va vakolatlarga ega. German modelini bo'yicha ijro organi Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Kuzatuv kengashining asosiy vazifasi bankni boshqarish ishonchli menejerlar qo'lidagiligini ta'minlab berishdir. Shuning uchun Kuzatuv kengashining asosiy vazifasi ijro organi a'zolarini tanlash va lozim hollarda ularni ishdan olish hisoblanadi. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ijro organi a'zolarini 5 yilgacha muddatga tayinlaydi va jiddiy asoslar bo'lganda bank ijro organi a'zosi bilan shartnomani bekor qiladi. Mazkur holat xalqaro amaliyotda o'ziga xos hisoblanadi, chunki ikki tizimli direktorlar kengashiga ega davlatlarning ko'pchiligida ijro organlari a'zolarini ishga tayinlash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradi.

So'nggi yillarda moliyaviy bozorlarning susayishi, shuningdek ko'plab korporativ janjallar, Germaniyada aksiyadorlik kompaniyalari, shuningdek fond birjalarining korporativ standartlarini tartibga solish sohasida qonunchilik islohotlarini o'tkazishga zamin yaratdi. Milliy va xorijiy investorlar uchun korporativ boshqaruvning shaffofligini oshirish hamda kompaniyalar boshqaruv organlariga ishonchni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun prof. Teodor Baums raisligida hukumat komissiyasi tuzildi. O'z tavsiyanomalardan birida Baums komissiyasi hukumatni yangi Korporativ boshqaruv kodeksini yaratish zarur ekanligiga da'vat etgan. Ushbu tavsiyaga asoslanib, hukumat "Thyssen-Krupp" aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi raisi Gerxard Krom boshchiligida tajribali guruh tashkil etdi. Mazkur guruh a'zolarining katta mehnati natijasida 2002-yilda Korporativ boshqaruv kodeksi ommaga e'lon qilindi. Mazkur huquqiy hujjat kuzatuv kengashi a'zolari hulq-atvorining amaliy andozalari, aksi-

yadorlarga axborotni oshkor etish va hisobdorlik majburiyatlari hamda auditorlar o'rnini belgilab berdi. Korporativ boshqaruv kodeksi chiqarilgach Krom komissiyasi doimiylik maqomini oldi va iqtisodiy hamda huquqiy amaliyotdan kelib chiqib Kodeksning yanada samaraliroq qoidalarini ishlab chiqish va o'zgartirishlar tayyorlashga yo'naltirildi [15].

Germaniya qonunchiligiga boshqa norma ijodkorlik takliflari ham joriy qilindi. Masalan, 2002-yil iyul oyida Shaffoflik va oshkoralik Akti (The Transparency and Publicity Act) kuchga kirdi.

Korporativ boshqaruv kodeksi yaqinda Germaniyada mazkur masalada o'tkazilgan islohotlarning asosiy bo'g'ini bo'ldi. U o'z-o'zidan qonun kuchiga ega bo'lmay, balki "eng yaxshi amaliyot" xususiyatiga ega. Kompaniyalar unga istaklariga ko'ra rioya qilishlari mumkin, biroq o'z faoliyatlarida kodeks qoidalariga haqiqatdan amal qilyaptilarmi-yo'qmi e'lon qilishlari shart. Kodeksni ishlab chiquvchilar bozor mexanizmlari kodeks tamoyillari asosida faoliyat yuritadigan "shaffof" kompaniyalarni taqdirlashi va, aksincha, kodeks qoidalariga amal qilmagan korporatsiyalar uchun noqulay iqtisodiy sharoitlar tug'dirishiga ishongan edilar.

Korporativ boshqaruv kodeksi korporativ boshqaruvning uch toifadagi tamoyillarini belgilagan. Ulardan birinchisi amaldagi qonunga amal qilishni ko'rsatadi. Boshqalari dunyoda ma'lum bo'lgan "eng yaxshi amaliyot standartlari"dan kelib chiqadigan tavsiyalar hamda takliflardan iborat. Kodeks kompaniyalar rioya qilishi kerak bo'lgan taxminan 50 ta tavsiyani (ularga rioya etilmagan holda, bu haqda oshkora e'lon qilinishi shart) va rioya etmaslikni oshkor etish talab qilinmaydigan 15 ta taklifni o'z ichiga olgan.

Kodeksda, shuningdek aksiyadorlar huquqiy holati, Umumiy yig'ilish, Kuzatuv kengashi va Ijro organi hamkorligi, ularning vakolatlari, kompaniyaning shaffofligi va hisobdorligi, audit hamda yillik buxgalterlik balanslari masalalari ham yoritilgan. Xususan:

1) kompaniyalar aksiyadorlarga ovoz berish huquqini, shu jumladan o'z vakillari orqali ham, amalga oshirishni ta'minlab berishi kerak. Ularga, shuningdek aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida Internet tarmog'i yoki boshqa zamonaviy aloqa vositalari yordamida "virtual ishtirok etish" imkoniyati berilishi kerak;

2) direktorlar kengashi qonunda belgilangan doirada kuzatuv kengashiga har taraflama va kechikmasdan kompaniya uchun muhim masalalar (ish faoliyati rivojlanishini rejalashtirish, xavfli iqtisodiy vaziyatlar va kompaniyani xatarli boshqarish) haqidagi axborotlarni yetkazib turishi kerak. Kuzatuv kengashi, o'z navbatida, kompaniya direktorlari tomonidan axborot va hisobot berilishi shart bo'lgan holatlar xususiyatlarini belgilab berishi lozim. Kompaniya ijro organi bir yoki bir necha a'zodan iborat bo'lishi mumkin. Kompaniya ustavi ularning vakolatlari va birgalikdagi faoliyat sohalarini belgilab yerishi lozim. Direktorlar maoshi aniq belgilangan bo'lishi kerak, biroq qo'shimcha to'lovlar ham nazarda tutilishi mumkin.

3) direktorlar kengashi a'zolari kompaniya uchun eng qulay sharoitlarni ta'minlash doirasida harakat qiladilar va o'z manfaatlarini ko'zlashlari mumkin emas. Korporatsiyaning shaffofligi tamoyilini ta'minlash maqsadida direktorlar har qanday manfaatlar ziddiyati to'g'risida kuzatuv kengashi boshqa a'zolariga xabar berishlari kerak. Direktorlar Kuzatuv kengashi ma'qullagandan keyingina, bir vaqtda bir necha xildagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi (masalan, boshqa kompaniyaning ijro organi a'zosi bo'lishi) mumkin. Kuzatuv kengashi kompaniya boshqaruv uchun yosh chegaralarini aniqlaydi. Kuzatuv kengashining mustaqilligini ta'minlash maqsadida uning ko'pi bilan ikki kuzatuv kengashi a'zosi kompaniya sobiq boshqaruvchilari safidan bo'lishi mumkin; Kuzatuv kengashi a'zolari raqobat qiluvchi kompaniyalarda direktorlik lavozimlarini egallashlari mumkin emas;

4) Kuzatuv kengashi, a'zolari o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi tegishli qo'mitalardan shakllangan bo'lishi kerak. Qo'mita raislari uning faoliyati to'g'risida muntazam hisobot berib turadilar. Bunda, buxgalteriya, iqtisodiy xavflar va kompaniya auditorlarining mustaqilligini ta'minlash masalalaribilan shug'ullanuvchilarning auditorlik qo'mitasining holati, ayniqsa, muhimdir.

Shunday qilib, Germaniyadagi korporativ boshqaruv modeli uch pog'onali kompaniya boshqaruv tuzilmasining klassik misollaridan biridir [16].

Yaponiya banklarida korporativ boshqaruv tizimi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Yaponiya korporativ boshqaruv shakli ko'pchilik uchun katta qiziqish uyg'otib keldi. Yaponiya-

da aksiyalarning katta qismi xo'jalik guruhlarini ("Keyresu") boshqaruvchi banklar va boshqa moliyaviy institutlarda to'plangan [17].

Bunday korporativ boshqaruv tizimida direktorlar kengashi asosan insayderlardan tashkil topgan bo'lib, mustaqil direktorlar ulushi juda kam, bu esa minoritar aksiyadorlarning ovoz berish huquqlarini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'diradi. 2015-yilda Yaponiyaning 50 ta eng yirik banklaridagi 82 % direktor kengashi a'zolari avval shu bankda ishlagan shaxslardan iborat bo'lgan. Mustaqil direktorlar amalda mustaqil bo'lmasdan ko'pincha davlat organlari manfaatlarini himoya qiluvchi yoki moliya kredit muassasalari vakillari hisoblanishadi.

Yaponiya korporativ boshqaruvining o'ziga xosligi shundaki, unda asosiy e'tibor ishtirokchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish emas, ular o'rta-sida biznes aloqlarini o'rnatishga qaratiladi.

Yaponiyada aksiyadorlarning bank kapitalini tashkil etishdagi roli kamligini hisobga olsak, yapon banklarida aksiyadorlarning asosiy qismini insayderlar (keyresu) vakillari tashkil etishiga guvoh bo'lamiz. Chet ellik investorlarning yapon bank sohasiga kirib kelishi juda qiyin. Banklarda insayderlarning mavjud bo'lishi ularning samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir qiladi, bu borada muallifning fikrlariga qo'shilish mumkin.

Yaponiyada korporativ boshqaruv ishtirokchilari asosiy bank, affillangan korporatsiya, ijrochi direktorlar va hukumat hisoblanadi.

Yapon banklarida direktorlar kengashi odatda insayderlardan tashkil topgan bo'lib, ijrochi direktorlar, menejerlar, korporatsiyalar vakillari, hukumat vakillari va jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat [18].

Yaponiya amaliyotiga xos xususiyat bu avval turli vazirliklarda ishlagan amaldorlarni bank kengashiga tayinlanishidir. Misol uchun, Yaponiya Moliya vazirligi bank aksiyadorlari bilan kelishgan holda o'zining sobiq xodimini bank kengashiga tayinlashi mumkin. Yapon Direktorlar kengashi tarkibi bankning moliyaviy ahvoliga ko'ra o'zgarib turishi mumkin.

Anglo-sakson modelidan farqli ravishda yapon banklari Direktorlar kengashida autsayder direktorlar (mustaqil direktorlar) juda kam uchraydi. Direktorlar kengashi a'zolari soni AQSh, Germani-

ya Direktorlar kengashi sonidan ancha ko'p hisoblanadi. Odatiy yapon bankining Direktor kengashi a'zolari soni 50 tadan ortiq bo'ladi [19].

2019-yilgi ma'lumotlarga ko'ra yapon banklarida tashqi direktorlar ulushi 30 foizni tashkil qilgan. Yapon bankining direktorlar kengashiga 15-16 tacha hukumat vakili, jamoat tashkilotlar yoki professional uyushmalar vakillari kiradi. Qolgan 34-35 vakil bankning turli bo'limlarida ishlaydigan boshqaruv xodimlardan tashkil topadi [20]. Yapon banklarining yana bir xususiyati, bank prezidenti shu bankda ishlaydigan, o'z faoliyatini mazkur bankda boshlagan shaxs bo'lishi kerakligidir.

Markaziy bank raisi o'rinbosari Abrorxo'ja Turdaliyev O'zbekiston bank tizimi holati haqida umumiy ma'lumot berib, uni rivojlantirishning istiqbolli bosqichlarini ma'lum qildi. Unga ko'ra, dollarlashuv darajasini pasaytirish maqsadida Moliya vazirligi huzurida xedj-fond tashkil etilmoqda, valyuta kreditlarini jalb qilishda esa "ehtiyotkorlik siyosati" olib boriladi. 2025-yilda bank sektoridagi hukumat ulushini 40 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan [21].

Xulosa o'rnida aytib o'tish lozimki, turli normativ-huquqiy hujjatlarda tarqoq ravishda mustahkamlangan qoidalar tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yetarli darajada yordam bermaydi [22].

Yuqoridagi olimlarning fikriga qo'shimcha qilish mumkinki, tijorat banklarida samarali korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yishda normativ-huquqiy hujjatlar emas, tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan boshqa hujjatlar (Korporativ boshqaruv kodekslari) ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham banklarni tadbirkorlik sohasida korporativ qonunchilikni tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Rivojlangan davlatlarning bank tizimi ularning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi natijasi bo'lib, ularning tajribasini to'g'ridan to'g'ri milliy bank tizimi va qonunchilikka joriy etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, xorij bank tizimlaridagi mustaqil direktorlar, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan normalarni milliy qonunchilikka joriy etish banklarda minoritar aksiyadorlarning huquqlarini samarali himoya qilishga olib keladi.

REFERENCES

1. Marcinowska M. Corporate governance in banks: Problems and remedies University of Lodz, Finance, Banking and Insurance Institute, 2012, p. 20.
2. Syomkin A.A. Organizatsiya bankovskoy sistemi v Rossiyskoy Federatsii., diss. kandidata yur. nauk [Organization of the banking system in the Russian Federation. Diss. candidate jur. sciences]. Saint Petersburg, 2012, p. 41.
3. Behr P., Schmidt R.H. The German banking system: Characteristics and challenges, SAFE White Paper, No. 32, Goethe University Frankfurt, SAFE - Sustainable Architecture for Finance in Europe, Frankfurt a. M., 2015, p. 18.
4. Board of governors of the federal reserve system. Available at: <https://www.federalreserve.gov/aboutthefed/structure-federal-reserve-system.htm/> (accessed 02.12.2021).
5. Syomkin A.A. Organizatsiya bankovskoy sistemi v Rossiyskoy Federatsii., diss. kandidata yur. nauk [Organization of the banking system in the Russian Federation. Diss. candidate jur. sciences]. Saint Petersburg, 2012, p. 44
6. Bank of Canada Act. Available at: https://www.bankofcanada.ca/wp-content/uploads/2010/07/act_loi_boc_bdc.pdf/.
7. Kostyuk A.N. Korporativnoe upravleniya v banke. Monografiya [Corporate governance in the bank. Monographs]. Sumi, GVUZ UABD NBU, 2008, p. 87.
8. Pollard A.M, Daly J.P. Banking law in the United States. 2011, vol. 1, p. 2.
9. Kostyuk A.N. Korporativnoe upravleniya v banke. Monografiya [Corporate governance in the bank. Monographs]. Sumi, GVUZ UABD NBU, 2008, p. 78.
10. Sitnik A.A. Bankovskaya sistema SSHA [Banking system of the USA]. Aktual'niye problemi rossiyskogo prava – Actual problems of Russian law, 2016, no. 10 (71).
11. Kostyuk A.N. Korporativnoe upravleniya v banke. Monografiya [Corporate governance in the bank. Monographs]. Sumi, GVUZ UABD NBU, 2008, p. 78.
12. Kostyuk A.N. Korporativnoe upravleniya v banke. Monografiya [Corporate governance in the bank. Monographs]. Sumi, GVUZ UABD NBU, 2008, p. 79
13. SOX Section 302: Corporate Responsibility for Financial Reports. Complying with the Sarbanes-Oxley Act (SOX). Available at: <https://www.soxlaw.com/sox-compliance/> (accessed 02.12.2021).
14. Hermalin B., Weisbach M. Boards of Directors as an Engheniously Determined institution: A Survey of the Economic literature. FRBNY Economic Policy Review, 2003, p. 26.
15. Voxidov M.M. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining huquqiy muammolari va takomillashtirish yo'llari., yur.fan.nomzodi dis. [Legal problems and ways to improve the system of corporate governance in joint-stock companies of Uzbekistan, PhD]. Tashkent, 2007, p. 64.
16. Voxidov M.M. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining huquqiy muammolari va takomillashtirish yo'llari., yur.fan.nomzodi dis. [Legal problems and ways to improve the system of corporate governance in joint-stock companies of Uzbekistan, PhD]. Tashkent, 2007, p. 66.
17. Borisova D.D., Kisina P.I., Anoxina M.E. Osobennosti razvitiya yaponskoy modeli upravleniya "keyrecu" i yujnokoreyskoy "chebol" [Features of the development of the Japanese management model "keirecu" and the South Korean "chaebol"]. Byulleten nauki i praktiki, 2017, no. 10 (23), pp. 223-227. Available at: <http://www.bulletennauki.com/borisova/> (accessed 02.12.2021)
18. Umarov B. Rol' detsentralizatsii v konsepsiyah sovremennogo upravleniya [The Role of Decentralization in Concepts of Modern Governance]. Review of law sciences, 2020, vol. 1, Special issue.
19. Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc. Available at: <https://www.mufig.jp/english/profile/overview/management/> (accessed 02.12.2021).
20. Kostyuk A.N. Korporativnoe upravleniya v banke. Monografiya [Corporate governance in the bank. Monographs]. Sumi, GVUZ UABD NBU, 2008, p. 115.
21. O'zbekiston bank tizimi: umumiy holat va istiqbollar [The banking system of Uzbekistan: general situation and prospects]. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/01/bank-system/> (accessed 02.12.2021).
22. Ibragimova A.R. Sistematizatsiya zakonodatelstva vneshney trgovli-zalog uspehnogo osushestvleniya biznes-deyatelnosti [Systematization of foreign trade legislation is the key to successful business activities]. Molodoy ucheniy – Young scientist, 2019, no. 20, pp. 312-315.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.